DOI: https://10.5281/zenodo.17664815

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI VA OILA O‘RTASIDA HAMKORLIK

Gaziyeva Nigora Shamsiddinovna
Angren universiteti “Pedagogika
va psixologiya” kafedra katta o‘qituvchisi

Bo‘stonova Ozoda Masharif qizi
Angren universiteti, maktabgacha
ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini u davlatlar ichida kichik bir davlat ekanligi jamiyatning rivojlanishi ham aynan mana shu kichik bo‘g‘indan boshlanishi. MTT ota-onalar bilan jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo‘shib olib borish keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkinligi haqida ochib berilgan. Maqolada oila hamkorligi va uning mohiyati bola tarbiyasidagi muhim jihatlari to‘g‘risida hamda bola ijtimoiylashuvini ta’minlovchi hamkorlik metodlar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lasiz. Qolaversa bolaning tashkilotga moslashuvi uning bilishga bo‘lgan obyektiv ehtiyojini yaxshilash. Bola o‘zligini namoyon etuvchi omillar haqida ham bayon qilamiz.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, oila hamkorlik, ota-ona, bola tarbiyasi, bola shaxsi, hamkorlik metodlari, jamiyat ta’siri, so‘rovnoma, tashviqot, ijodkorlik, jamoa, individual, natija

АННОТАЦИЯ

В данной статье семья - это главное звено в обществе это маленькое государство внутри государств с этого маленького звена начинается развитие ОБЩЕСТВА дошкольные образовательные организации работают с родителями как в команде и индивидуально. Положительные результаты в воспитании детей обусловлены умелым сочстанием форм организацией педагогической пропагандической работы среди широких слоев населения. Статье вы узнаете о семейном сотрудничестве его сущности и важных аслектах в воспитании детей а также ометодах сотрудничества обеспечивающих социализацию ребёнка. Кроме того мы опишем факторы определяющие адаптацию ребёнка к МТТ и формирование у него обьективной потребности в зданиях.

Ключевые слова: Дошкольное образование, сотрудничество с семьёй, родители, воспитание ребёнка, личность ребёнка, методы сотрудничества, влияние общества, опрос, агитация, творчество, коллектив, индивидуальный, результат.

ABSTRACT

In this article the family is the main link in society it is a small state within the states the development of society begins from this small link preschool education organizations with parents as a team and individually. It is revealed that the achievement of positive results in the upbringing of children through the skillful combination of forms of work the organization of pedagogical propaganda work among the general population. Article you will leam about family cooperation it is essence and important aspects in child upbringing as well as cooperation methods that ensure that ensure the socialization of the child in addition we will describe the factors that determine the child’s adaptation to the MTT and improve his objective need for knowledge.

Keywords: Preschool education, family collaboration, parents, child upbringing, child personality, collaboration methods, social influence, survey, promotion, creativity, team, individual, result.

Oila xalqning jamiyatning hayoti turmushiga oid urf odatlarni o‘zida sinovdan o‘tkazadi. Yaxshilarini o‘z bağrida asrab avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila oz farzandlarini tarbiyalab ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga bodhlanğich ijtimoiy yo‘nalish beradi. O‘z farzandlarini katta oqimga jamiyatga qo‘shish bilan esa oila jamiyat yo‘nalishi iqtisodiyoti madaniyati va ma’rifatini ham belgilashga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham Sharqda oila qadim qadimdan muqaddas qo‘rg‘on hisoblanib kelingan. Xususan o‘zbek oilalarining serildizlik xususiyatlari hozir ham saqlanib turibdi. O‘zbeklarda oilalarining muayyan turmush tarzi shakllanib hayotiy tajriba ortirib borishi tejamli va sarishta ro‘zg‘or turishi farzandlarni odobli manaviy yetuk bo‘lib kamol topishida keksalar ota onaning ro‘li katta o‘zbek oilalari o‘zlarining mustahkamligi, saranjom- sarishtaligi, bolajonligi, qarindosh-qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi mehr oqibatli va boshqa qadriyatlari bilan ajralib turadi.

O‘zbekistonning davlat mustaqilligi tufayli xalqimizning azaliy milliy urf odat va marosimlari qaytadan tiklana boshlandi. Bu udumlar oilani mustahkamlashda muhim o‘rin egallaydi. O‘zbekiston hukumati oila masalalariga davlat siyosati darajasida bajarilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifa sifatida qaraydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga ko‘ra - oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. U jamiyat hamda davlat tomonidan muhofazada bo‘lish huquqiga ega. Onalik va bolalikni muhofaza qilish bo‘yicha boshqa qonuniy hujjatlar ham qabul qilinib amaliy tadbirlar belgilangan.

Oilani jamiyatning ravnaq topilishida tutgan o‘rni va ishtirokini yanada oshirish oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy manfaatlarini va farovonligini yaxshilashni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlashni kuchaytirish hamda izchil taminlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 1998- yilni "Oila yili"

deb e’lon qildi. Shunga asosan oila manfaatlarini ta’minlash borasida amalga oshiriladigan tadbirlar to‘g‘risida davlat dasturi ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi xotin qizlar qo‘mitasi huzurida Respublikasi "Oila" ilmiy amaliy markazi tashkil etildi. Oilaviy hayot masalalarini huquqiy tartibga solishga bag‘ishlangan O‘zbekiston respublikasining oila kodeksi qabul qilingan. Baxtli oilalar tufayli baxtli jamoalar vujudga keladi. Chunki baxtli ota-onalar baxtli bolalarni ulg‘aytiradilar. Bir-birlariga mehr qo‘ygan ota-onalarning farzandlari ham bir birlariga mehr qo‘yadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 14 fevral kuni maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi tahliliga bag‘ishlangan videosrlektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Yig‘ilishda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev bu tizimni chuqur tahlil qilib shu paytgacha nazardan chetda bo‘lgan eng kichik jihatlarigacha e’tibor qaratdi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarning saviyasi, bilimi va ko‘nikmalari masalasiga alohida e’tibor qaratildi. “Bolalar tarbiyasi jarayonida o‘z ishini puxta biladigan malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog kadrlarni jalb qilgan holda ularni go‘dakligidan ongi va tafakkurini to‘g‘ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya bilim va ma’naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo‘ladi”, - dedi Sh.M.Mirziyoyev.

MTT ota onalar bilan jamoa tarzida va yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo‘shib olib borish keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin. MTT xodimlarini ota ona va oila bilan hamkorlikdagi ishlarining eng keng tarqalgan shakllarini quyida keltiramiz. "Zero bolalarni tarbiyalash bu kelajakni tarbiya qilmoqdir". Tarbiyachi va ota-onalarning o‘zaro munosabatlariga yangi yondashuvlar axborot almashinuvi va pedagogik bilimlarni targ‘ib qilishdagi hamkorlikdan dialogik yo‘nalishdagi ota-onalar bilan tarbiyachining shaxslararo muloqoti sifatida hamkorlikka o‘tish. Bu yerda asosiy tushuncha dialog bo‘lib u shaxsiy teng muloqotni birgalikda tajriba orttirishni anglatadi. Ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash ilg‘or pedagogik tajribalarni ko‘rsatishicha ishning bu turi katta ahamiyatga ega. Bunda tarbiyachi oila va bolaning

shaxsiy xususiyatlarini o‘rganib, ularni o‘zining tarbiyaviy ishida hisobga oladi. MTT tajribasida ota-onalar bilan yakkama-yakka holda olib boriladigan ishlarning turli xil shakllari aniqlangan. Oilaga tarbiyachining tashrif buyurishi. Yiliga 2 marotaba o‘quv yilning boshida va o‘quv yilning oxirida amalga oshiriladi. Bunda tarbiyachi bolalarning uylariga borishidan maqsad-tashkilotda qiynalgan faoliyati bo‘yicha yoki tarbiyasida o‘zgarish bo‘lgan bolalar bilan individual ishlashga boradilar. Bunday holatlarda tarbiyachi va ota-onaning hamkorligida amalga oshiriladi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchi istiqomat qiladigan xonadonga tashrif buyurishidan oldin shu tashkilot rahbari ogohlantiriladi. So‘ngra ota-onalar bilan suhbatlashib, bir kunni bir vaqtni belgilab o‘sha kunga tayyorgarlik ko‘radi.

Tarbiyachi bolalarning uylariga borishidan oldin qanday tayyorgarlik ko‘radi?

Masalan - bola MTTda mashg‘ulot faoliyati davomida yoki erkin faoliyatida muloqat qilish orqali nutqida qiynalsa u holda 30 daqiqalik mavzu tanlab olib maqsad qo‘yib kerakli jihozlarini tanlab oladi. Keyin shu mavzu asosida bolani qiziqtiruvchi metodlar o‘yinlarni tanlab oladi. Shular asosida bola bilan 30 daqiqa individual holda ishlaydi. Ota onalar uchun suhbat o‘tkazish. Ularga maslahatlar berish. Ota-onalarning tashkilot hayoti bilan tanishishlari. Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar. Bular ota-onarni guruhiy va umumiy majlisi ota- onalar maktabi anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob davralari. Shunday qilib, MTT oila bilan hamkorligi turli shakllarda amalga oshiriladi. Ushbu shakllar an’anaviy (ota-onalar yig‘ilishi, suhbatlar ham individual ham guruh shaklida olib boriladi) va noan’anaviy (ota-onalar bilan anjuman, davra suhbatlari) bo‘linadi. Shunday qilib, MTT va oila hamkorligini yanada oshirish ota-onalar o‘rtasida psixologik va pedagogik fanlarning eng so‘nggi yutuqlarini keng targ‘ib etish ota onalar va tashkilot tarbiyachilari bilan turli mavzularda katta-kichik noan’anaviy yig‘ilishlar, tadbirlar, mashhur har sohaning vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish, badiiy kechalar o‘tkazib turish bolalarning ko‘z o‘ngida ma’naviy boy shaxslarni gavdalantirish avlodlardan faxrlanish va ularga mos farzandlar bo‘lish hissini uyg‘otish shubhasizdir. Ammo, ushbu tashkil etilgan tadbir va uchrashuvlarning muvaffaqiyati tarbiyalanuvchilarning ota-onalar

munosabati bilan ham chambarchas bog‘liq. Shunday ekan ota-onalarimizning mas’uliyat hissini oshirishimiz asosiy vazifamiz bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kun zamonaviy MTT tarbiyachisiga tavsiyalar: Rivojlangan zamonamizda axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardan atrofimizdagi barcha keng foydalanmoqda. Zamonaviy tarbiyachi bundan oqilona foydalanish lozim. Umumiy va navbatdan tashqari yig‘ilishlarga ota onalarni taklif qilishda "Onalar maktabi" yoki "Otalar maktabi" kabi maxsus nomlar qo‘yish. Bu ta’lim-tarbiya jarayoniga doimiy faol bo‘lgan ota yoki onalardan tashqari maxsus taklif orqali har ikkalasini jalb qilish imkonini beradi. MTT ota onalar bilan jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo‘shib olib borish keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli, bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin. MTT xodimlarini ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlarining eng keng tarqalgan shakllarini quyida keltiramiz:

- ota-onalar bilan yakkama yakka holda ishlash;
- ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar;
- ko‘rsatmali ishlar;
- ota-onaga pedagogik ta’lim berish va boshqalarni ko‘rsatish mumkin;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Sh.Tatliboyev "Ota onalar bilan hamkorlik texnologiyalari"o‘quv qo‘llanma Toshkent 2024

2. N.Umirzakova "Oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik "metodik qo‘llanma Toshkent 2020

3. N.Sh.Gaziyeva, Sh.T.Nizamova “Tarbiyachi-pedagogning kasbiy sifatlarini takovillashtirish” Toshkent-2025.

4. "Oila kodeksi " 30.04.1998

5. M.G‘. Abduffatayeva "MTT va oila o‘rtasida hamkorlik" maqola Qo‘qon universiteti